Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
Shaxnoza To'xtiyarova	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'ilo'y Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zozxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	

SPORTDA LIDERLIK VA JAMOAVIY RUHNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Nazarov Nursultan Safarbayevich

NavDU San'at va sport fakulteti
2-kurs talabasi, 201-24 JM

Ilmiy rahbar: Musayev Otabek Qudratovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirishning nazariy asoslari hamda ularni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy metodlar – adabiyotlarni tahlil qilish, solishtirish, sintez va tizimli yondashuv asosida sport jamoalarida liderlik fazilatlari hamda jamoaviylikning psixologik omillari o'rganilgan. Natijalar samarali liderlik sport jamoasining muvaffaqiyatini oshirishi, jamoaviy ruhni mustahkamlashi va sportchilarda mas'uliyat, o'zaro ishonch hamda motivatsiyani kuchaytirishini ko'rsatdi. Maqolada murabbiy va sportchilar o'rtasidagi kommunikativ hamkorlik, motivatsion mashg'ulotlar hamda rolli o'yinlarning sport jamoalarida liderlikni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, sport mashg'ulotlarida liderlikni shakllantirish sportchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bevosita xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: liderlik, jamoaviy ruh, sport psixologiyasi, motivatsiya, sport pedagogikasi, murabbiylik, ijtimoiy muloqot.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of leadership and team spirit formation in sports, as well as the methods applied to develop these qualities. The study employed theoretical research methods – literature review, comparative analysis, synthesis, and a systematic approach – to examine psychological and pedagogical factors influencing leadership development and team cohesion among athletes. The findings indicate that effective leadership enhances team performance, strengthens team spirit, and increases athletes' responsibility, motivation, and mutual trust. The paper highlights the significance of coach–athlete communication, motivational activities, and role-play exercises in fostering leadership within sports teams. According to the conclusions, developing leadership in sports directly contributes to the improvement of athletes' personal and social competencies.

Key words: leadership, team spirit, sports psychology, motivation, sport pedagogy, coaching, social interaction.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы формирования лидерства и командного духа в спортивной сфере, а также методы, применяемые для их развития. В исследовании использованы теоретические методы – анализ литературы, сравнительный анализ, синтез и системный подход, что позволило изучить психологические и педагогические аспекты лидерства и сплочённости спортсменов. Результаты показали, что эффективное лидерство повышает успешность команды, укрепляет командный дух, а также развивает у спортсменов ответственность, взаимное доверие и мотивацию. В статье освещена роль коммуникации между тренером и спортсменами, мотивационных занятий и ролевых игр в развитии лидерских качеств. На основе выводов исследования подчеркивается, что формирование лидерства в спорте способствует развитию личностных и социальных компетенций спортсменов.

Ключевые слова: лидерство, командный дух, спортивная психология, мотивация, спортивная педагогика, тренерство, социальная коммуникация.

KIRISH

Zamonaviy sport faqat jismoniy tayyorgarlik yoki texnik ko'nikmalarni egallash jarayoni emas, balki shaxsning ijtimoiy va psixologik jihatdan kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Sport faoliyatida o'zaro hamkorlik, mas'uliyatni bo'lishish, yetakchilikni namoyon etish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi fazilatlar insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishida beqiyos o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qara-ganda, sport mashg'ulotlarida liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlarini o'rganish bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport pedagogikasining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Sport jamoalarining muvaffaqiyati nafaqat sportchilarning texnik tayyorgarligiga, balki jamoaning ichki muhitiga ham bog'liqdir. Har qanday jamoa faoliyatida rahbarlik qilish, boshqalarni ruhlantirish, bir maqsad sari yo'naltirish va muammoli vaziyatlarda ijobiy yechim topa bilish kabi liderlik ko'nikmalari hal qiluvchi rol o'ynaydi.



Liderlik shaxsning tabiiy fazilati sifatida emas, balki sport mashg'ulotlari davomida tarbiyalanadigan va rivojlan-tiriladigan psixologik-ijtimoiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. ^[3]

Shu bilan birga, jamoaviy ruh – bu jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro ishonch, birdamlik, ijtimoiy mas'uliyat va o'zaro yordamga tayyorlikni ifodalovchi psixologik holatdir. ^[2]

Sportda liderlik va jamoaviylik tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqdir. Yetakchi sportchi nafaqat o'zining sport mahoratini, balki jamoa a'zolari bilan to'g'ri muloqot o'rnatish, ularga ruhiy tayanch bo'lish, qarorlar qabul qilishda muvofiqlikni ta'minlash kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Shu sababli, sport mashg'ulotlarida jamoaviy ruhni shakllantirish va liderlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar, trening uslublari, psixologik moti-vatsiya usullari va guruhli mashqlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda sportchilar o'rtasida ijtimoiy muloqot, bir-birini qo'llab-quvvatlash va ijobiy raqobat muhitini yaratish orqali liderlik fazilatlarini shakllantirish tajribasi tobora kengayib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsa-tadiki, jamoaviy sport turlari (futbol, voleybol, basketbol va hokazo) individual sport turlariga nisbatan ko'proq ijtimoiy faollik, o'zaro ishonch va psixologik bardoshlilikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, har bir sport jamoasida tabiiy va funksional liderlar mavjud bo'lib, ularning harakatlari jamoaning umumiy ruhiy holatiga, motivatsi-yasiga va natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. ^[1]

Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish masalasi nafaqat sportchilarning muvaffaqiyatini oshirish, balki ularni kelgusida hayotiy faoliyatda mas'uliyatli, irodali va ijtimoiy faol shaxs sifatida tayyorlashda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu maqolada sportda liderlik fazilatlarini rivojlantirish va jamoaviy ruhni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik va psixologik metodlari tahlil qilinadi hamda ularning sport jarayonidagi samaradorligi yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport psixologiyasi bo'yicha yetakchi tadqiqotlar sportda liderlik va jamoaviy ruhning shakllanishi murak-kab psixologik jarayon ekanini ko'rsatadi. Anderson va Shivakumar sport jamoalarida liderlikning rivojlanishi bevosita jamoa ichidagi emotsional bog'liqlik, ishonch va kommunikatsiya samaradorligiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Carron va Eys tomonidan ishlab chiqilgan "group dynamics" modeli esa sport jamoalarida liderlik-ning shakllanishi uchun jamoa strukturasining aniqligi, rollarning to'g'ri taqsimlanishi va ijtimoiy qo'llab-quvvat-lashning kuchliligi muhim omil ekanini asoslaydi. Bu yondashuvlar liderlikni nafaqat shaxsiy sifat, balki jamoa dinamikasi ta'sirida shakllanuvchi jarayon sifatida izohlaydi.

Yukelson va Martens tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sport jamoalarida jamoaviy ruhning shaklla-nishi motivatsiya, o'zaro yordam va birdamlikka tayangan holda rivojlanishi ko'rsatib beriladi. Weinberg va Gould sportchilarning psixologik tayyorgarligi, stressga bardoshlilik, ichki motivatsiyasi hamda o'zaro hurmat-ning kuchli jamoaviy muhit barpo etishdagi rolini ilmiy asoslaydi. Selye tomonidan ishlab chiqilgan stress nazari-yasi sportchilarning ruhiy barqarorligi liderlikni samarali shakllantirishda muhim omil ekanini tushuntiradi. Deci va Ryan tomonidan taklif qilingan o'z-o'zini belgilash nazariyasi esa sportchilarda ichki motivatsiya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari liderlik fazilatlarini kuchaytirishini ilmiy isbotlaydi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida Uzbekov sport jamoalarida liderlik va jamoaviy ruhning o'zaro bog'liqligini, ijtimoiy muhit va murabbiylik uslublarning bu jarayonga ta'sirini tahlil qilgan. Cox tomonidan yoritilgan sport psixologiyasi konsepsiyalari esa sportchilarda ijtimoiy muloqot, irodaviy sifatlar, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati jamoaviylik va liderlikning psixologik markazini tashkil etishini ko'rsatadi. Northouse tomonidan ilgari surilgan liderlik nazariyalari sport jamoalarida transformatsion, situatsion va demokratik liderlik shakllarining qo'llanishi jamoaning umumiy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish jarayonining psixologik-pedagogik asos-larini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda asosan nazariy metodlar – adabiyotlarni tahlil qilish (analysis), solishtirish (comparative analysis), sintez (synthesis) va tizimli yondashuv (systematic approach) metodlaridan foyda-lanildi. Ushbu metodlar sport faoliyatida liderlik fazilatlarini va jamoaviylikni shakllantirishga oid ilmiy manbalarni o'rganish hamda ularni umumlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida sport psixologiyasi, jismoniy tarbiya nazariyasi va ta'lim jarayonida liderlikni rivojlantirishga oid manbalar chuqur tahlil qilindi. Xususan, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqo-lalari, dissertatsiyalar, monografiyalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga bag'ishlangan elektron manbalar o'rganildi.

Tahlil jarayonida sport faoliyatida liderlikning shakllanish mexanizmlari, rahbarlik uslublari, jamoa dina-mikasining psixologik omillari hamda sport jamoalarida o'zaro ishonch va motivatsiya tizimining o'rni ko'rib chiqildi. Shuningdek, o'qituvchi va murabbiylar faoliyatida liderlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ham tahlil qilindi. ^[2]



Adabiyotlarni o'rganish orqali sportda liderlikni rivojlantirishga doir turli nazariy qarashlar solishtirildi. Xususan, shaxsiy liderlik, situatsion liderlik va transformatsion liderlik nazariyalari sport jamoalari kontekstida qanday qo'llanilayotgani tahlil qilindi. Bundan tashqari, jamoaviy ruhning psixologik asoslari – motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik, jamoaviy identifikatsiya kabi tushunchalar chuqur o'rganildi. ^[1]

Tadqiqot davomida turli sport turlarida liderlik va jamoaviylikni rivojlantirish jarayonlari solishtirildi. Jamoaviy sport turlari (futbol, voleybol, basketbol) hamda individual sport turlari (yengil atletika, suzish, tennis) o'rtasida psixologik hamkorlik, o'zaro ishonch, mas'uliyatni taqsimlash darajasi bo'yicha farqlar aniqlanib, ular ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil qilindi.

Shuningdek, liderlikni shakllantirishda murabbiylarning roli, jamoa strukturasining o'ziga xos jihatlari, sportchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasi kabi omillar o'zaro taqqoslandi. Solishtirish natijasida aniqlanishicha, jamoaviy sport turlarida liderlik tabiiy ravishda shakllanadi, chunki bu jarayon o'zaro muloqot, motivatsiya va jamoaviy qaror qabul qilishni talab etadi. Individual sport turlarida esa liderlik asosan shaxsiy o'zini boshqarish, ichki intizom va o'z-o'zini motivatsiya orqali namoyon bo'ladi.

Turli ilmiy manbalar asosida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirishga oid yagona nazariy model shakllantirildi. Ushbu modelda sport mashg'ulotlarida ijtimoiy-psixologik muhit, motivatsion tizim, kommunikatsiya va murabbiylik uslublarining o'zaro bog'liqligi asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqotda liderlik va jamoaviylikni faqat sportchilarning individual xususiyati sifatida emas, balki sport jamoasining murakkab ijtimoiy tizimi sifatida o'rganishga e'tibor qaratildi. Tizimli yondashuv sport jamoasidagi har bir ishtirokchining o'zaro ta'siri, motivatsiyasi va ijtimoiy roli o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport faoliyatida liderlik va jamoaviy ruh bir-biridan ajralmas ikki psixologik-pedagogik omildir. Ular sport jamoasining umumiy muvaffaqiyatini, ichki muhitini va sportchilarning individual rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, sport jamoalarida liderlikning shakllanishi uch bosqichda kechadi:

1. **Tashkiliy bosqich** – bunda sportchi jamoa tizimiga kiradi, ijtimoiy rollarni o'zlashtira boshlaydi.
2. **Faoliyat bosqichi** – jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, muloqot va hamkorlik shakllanadi, tabiiy liderlar ajralib chiqadi.
3. **Integratsiya bosqichi** – jamoa umumiy maqsad sari yo'naladi, liderlik funksiyalari murabbiy va sportchilar o'rtasida taqsimlanadi, jamoaviy ruh barqarorlashadi. ^[2]

Sportdagi liderlik faqatgina shaxsiy xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir, kommunikatsiya sifati va motivatsion muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, samarali lider sport jamoasida o'z harakati bilan boshqalarga ibrat bo'ladi, murabbiy bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi hamda jamoani ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Bunday liderlik shakli sportchilarda o'zaro hurmat, mas'uliyat, ishonch va bir-birini tushunish hissini mustahkamlaydi. ^[3]

Jamoaviy ruh esa jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy-emotsional bog'liqlikni, o'zaro yordamni va birdamlikni ifodalaydi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, jamoaviy ruhning kuchli bo'lishi sportchilarning psixologik bardoshlilikini oshiradi, stress holatlarini kamaytiradi hamda o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlaydi. Jamoaviy sport turlarida bu holat ko'proq kuzatiladi, chunki ular doimiy muloqot, birgalikda qaror qabul qilish va o'zaro qo'llab-quvvatlashni talab etadi. ^[1]

Solishtirish (comparative analysis) natijalari shuni ko'rsatdiki, individual sport turlari (suzish, yengil atletika, tennis)da liderlik ko'proq shaxsiy o'zini boshqarish, o'z-o'zini motivatsiya qilish, ichki irodaviy kuch orqali namoyon bo'ladi. Jamoaviy sport turlarida esa liderlik ijtimoiy jarayon sifatida shakllanadi – bunda muloqot, guruh qadriyatlariga sodiqlik, o'zaro hurmat va ijtimoiy mas'uliyat ustuvor o'rin tutadi.

Shuningdek, tahlil jarayonida murabbiylarning rahbarlik uslubi ham liderlik va jamoaviy ruh shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi. Avtoritar yondashuvdan ko'ra demokratik va hamkorlikka asoslangan yondashuv jamoada ijobiy psixologik muhitni yaratadi, sportchilarning o'z fikrini bildirish va tashabbus ko'rsatish imkoniyatini kengaytiradi. Shu orqali sportchi o'zini jamoaning faol a'zosi sifatida his etadi va tabiiy yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Trening mashg'ulotlarida rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni modellash, bunda sportchilar bir-birining fikrini eshitishni, qaror qabul qilishni va mas'uliyatni bo'lishishni o'rganadi.
2. Motivatsion suhbatlar va psixologik mashg'ulotlar, ular sportchilarning ichki ruhiyatini kuchaytiradi, jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi.



3. Murabbiy-sportchi hamkorligiga asoslangan kommunikativ yondashuv, bu orqali sport jamoasida o'zaro ishonch va hurmat muhitini yaratish mumkin.
4. Jamoaviy maqsadlarni belgilash va baholash tizimi, bu liderlikni tabiiy shakllantiradi va har bir sportchini umumiy natijaga hissa qo'shishga undaydi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon bo'lib, u murabbiy, sportchi va jamoa o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslanadi. Bunday jarayon sport natijalarini yaxshilash bilan birga, sportchilarning ijtimoiy faol, mas'uliyatli va irodali shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida sport faoliyatida liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirishning o'ziga xos pedagogik-psixologik mexanizmlari aniqlandi. Sport jamoasining muvaffaqiyati nafaqat sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, balki ularning o'zaro munosabati, ishonchi va motivatsion birligiga ham bevosita bog'liq ekanligi qayd etildi. Shu jihatdan, liderlik va jamoaviy ruhni rivojlantirish sport pedagogikasining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sportda liderlik – bu shaxsning boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish, jamoani umumiy maqsad sari yo'naltirish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatidir. Bunday liderlik tabiiy holatda emas, balki murabbiy tomonidan to'g'ri yo'naltirilgan pedagogik jarayon orqali shakllanadi. Ayniqsa, jamoaviy mashg'ulotlarda sportchilarni mustaqil fikrlashga, o'z tashabbusini bildirishga va jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Jamoaviy ruh esa sportchilarning o'zaro ishonch, hamkorlik, birdamlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash asosida bir butun jamoaga aylanishini ta'minlaydi. U samarali kommunikatsiya, umumiy maqsadni anglash va ijobiy psixologik muhit orqali mustahkamlanadi. Jamoaviy sport turlari bu jarayon uchun eng samarali sharoit yaratadi, chunki ular sportchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni doimiy talab qiladi.

Tahlil asosida aniqlangan eng muhim natija shundan iboratki, liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish sportchilarda quyidagi ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi:

- o'z-o'ziga ishonch va mas'uliyat hissi ortadi;
- stressga bardoshlilik va ruhiy barqarorlik kuchayadi;
- sport natijalari yaxshilanadi;
- jamoaviy birdamlik, hamkorlik va o'zaro hurmat mustahkamlanadi.

Shu bois, sport mashg'ulotlarida liderlik va jamoaviy ruhni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bunda quyidagi tavsiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq:

1. Trening jarayonlarida guruhli muammoli vaziyatlar va rolli o'yinlardan foydalanish.
2. Murabbiy-sportchi o'rtasida doimiy muloqot va ishonchga asoslangan kommunikativ muhit yaratish.
3. Sportchilarni birgalikda maqsad belgilash va baholash jarayonlariga jalb etish.

Yuqoridagi yondashuvlar sportchilarni nafaqat sport sohasida, balki kundalik hayotda ham yetakchilik fazilatlariga ega, mas'uliyatli va jamoaga sodiq shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Anderson, E., & Shivakumar, R. (2019). Team cohesion and leadership development in sport: A psychological perspective. *Journal of Sport Psychology*, 41(3), 215–230.
2. Carron, A. V., & Eys, M. A. (2012). *Group Dynamics in Sport* (4th ed.). Human Kinetics.
3. Yukelson, D. (2019). Enhancing Team Leadership and Cohesion in Sport: Strategies for Success. *Sport Psychologist Review*, 28(2), 101–118.
4. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2015). *Foundations of Sport and Exercise Psychology* (6th ed.). Human Kinetics.
5. Martens, R. (2012). *Successful Coaching*. Human Kinetics.
6. Northouse, P. G. (2021). *Leadership: Theory and Practice* (9th ed.). Sage Publications.
7. Cox, R. H. (2016). *Sport Psychology: Concepts and Applications* (7th ed.). McGraw-Hill Education.
8. Selye, H. (1956). *The Stress of Life*. New York: McGraw-Hill.
9. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227–268.
10. Uzbekov, B. (2020). Sport jamoalarida yetakchilik va ijtimoiy muhitning o'zaro bog'liqligi. *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 3(5), 54–61.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.